

## IX. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK




### FAOLIYAT YURITAYOTGAN KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI TAHLILI


**Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik)** – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2025- yilning 1-oktyabr holatiga 14 731 tani tashkil etdi. (2024 yilning shu davriga nisbatan 6,9 % ga kamaydi).

#### Viloyatda faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) (birlikda)



2025- yil 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) soni jami 14 731 tani, shundan yangi tashkil etilganlari 2 705 tani tashkil etdi. Hududlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko‘pi Jizzax shahrida 4 063 tani (yoki jamiga nisbatan 27,6 %) ni, Sharof Rashidov tumanida 2 227 tani (15,1 %) va G‘allaorol tumanida 1 307 tani (8,9 %) ni tashkil qildi.



**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**  
2025- yilning yanvar-sentabr oylarida (jamiga nisbatan % da)  
(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)

2023-yil



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining **YaHM**dagi ulushi 71,0 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1 000** aholiga 9,4 birlikni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida 2 705 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu ularning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 863 taga (24,2 % ga) kamayganligini ko'rsatmoqda.

*2025- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da*

2024-yil



*Savdo*



*Sanoat*



*Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi*



*Qurilish*



*Boshqalar*



2025-yil



## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi

Eng ko'p kichik biznes subyektlari savdo (jami tashkil etilgan subyektlarning 33,8 %), sanoat sohasida (12,9 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida (21,7 %), qurilishda (5,8 %) va boshqa sohalarda (25,8 %) tashkil etilgan.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan:

– o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 13 714,6 mlrd so'mni (umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi 73,3 %), o'sish sur'ati esa 2024-yilning mos davriga nisbatan 139,0 % ni tashkil qildi;

– qurilish ishlari hajmi 5 114,6 mlrd so'mni (qurilish ishlari umumiy hajmidagi ulushi 87,0 %) va 2024 yilning yanvar-sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 107,1 %ni tashkil qildi;

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 6 551,1 mlrd so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishining ulushi 24,4 %) tashkil qildi;

– ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 12 043,2 mlrd so'mni tashkil qilib, (jami xizmatlar hajmidagi ulushi 71,2 %) 2024 yilning yanvar-sentabriga nisbatan 12,1 %ga o'sdi;

– chakana tovar aylanmasi 2 280,4 mlrd so'mni (jami chakana tovar aylanmasining 27,0 %) 2024 yilning yanvar-sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 115,3 %ni tashkil qildi;

– tovarlar eksport hajmi 92,1 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 76,0 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, tovarlar import hajmi 251,6 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 21,6 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi;


– avtomobil transportida 29 135,6 ming tonna yuk tashilib (jami avtomobil transporti yuk tashishdagi ulushi 100,0 %) 2024 yilning yanvar-sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 104,3 % ni tashkil qildi;

– avtomobil transportida 71 217,9 ming yo'lovchi tashilib (umumiy yo'lovchi tashishdagi ulushi 100,0 %) 2024 yilning yanvar-sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 102,8 %ni tashkil qildi;

2025- yilning yanvar-sentabrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi – 71,0 % ni, sanoatda – 24,4 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 99,0 % ni, qurilishda – 87,0 % ni, tashqi savdo aylanmasida – 79,8 % ni tashkil qildi.


## Viloyat bo'yicha kichik tadbirkorlikda iqtisodiy tarmoqlar kesimida ishlab chiqarishning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

**2025- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi**



Jizzax viloyati bo'yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Jizzax shahri (2 286,4 mlrd so'm), Sharof Rashidov (669,3 mlrd so'm) va Forish (585,6 mlrd so'm) tumanlarida kuzatildi.

**2025- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati**



Jizzax viloyati bo'yicha eng ko'p xizmatlar hajmi Jizzax shahri (2 430,6 mlrd so'm), Sharof Rashidov (1 184,7 mlrd so'm), G'allaorol (653,2 mlrd so'm) va Baxmal (603,2 mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

**2025- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat iqtisodiyotida  
kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, % da**

	<i>Sanoat</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Xizmatlar</i>	<i>Qishloq xo'jaligi</i>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>24,4</b>	<b>87,0</b>	<b>71,2</b>	<b>99,0</b>
<i>shahar:</i>				
Jizzax	30,4	83,9	44,2	97,4
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	100,0	85,4	78,1	99,8
Baxmal	100,0	91,8	74,5	99,9
G'allaorol	1,5	94,7	61,2	99,7
Sharof Rashidov	75,4	94,1	87,3	99,8
Do'stlik	13,2	90,6	72,4	99,8
Zomin	52,8	72,8	69,6	95,3
Zarbdor	79,4	97,7	73,4	99,9
Zafarobod	12,8	67,5	78,4	99,5
Mirzacho'l	23,9	90,9	62,1	97,7
Paxtakor	24,0	87,7	68,8	98,1
Forish	46,9	94,7	82,8	99,8
Yangiobod	100,0	87,0	73,4	99,9

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda kichik tadbirkorlikning iqtisodiy ko'rsatkichlari sohalar bo'yicha tahlil qilinganida:

- sanoat tarmog'ida kichik tadbirkorlikning eng kam ulushi G'allaorol (1,5 %) tumani hissasiga, eng ko'p ulushlar esa Arnasoy va Baxmal (100,0 %), Yangiobod (100,0 %) tumanlari hissasiga.

- qurilish tarmog'ida kichik tadbirkorlikning eng kichik ulushlari Zafarobod (67,5%), Zomin (72,8%), Arnasoy (85,4 %) tumanlari va Jizzax shahriga (83,9 %) to'g'ri keldi.

- xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari Sharof Rashidov (87,3 %) va Forish tumanlariga (82,8 %) to'g'ri keldi.

- qishloq xo'jaligi tarmog'ida viloyat miqyosida yaratiladigan qo'shimcha qiymatning asosiy qismi kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirildi.